

AGROKLASTERLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING
NAZARIY ASOSLARI

Jo'rayeva Diyora Olimjonovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Eshmuradov Ulug'bek Tashmurotovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq xo'jalik korxonalarida, jumladan agroklastarlarda kapital sarflar hisobini tashkil etishning nazariy asoslari, ya'ni "kapital sarf" va "investitsiya" atamalarini qo'llashda yuzaga kelayotgan muammo va ularning yechimlari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *kapital sarflar, investitsiyalar, agroklastarlar, 21-son BHMS, xalqaro standartlar.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА КАПИТАЛЬНЫХ
ЗАТРАТ В АГРОКЛАСТЕРАХ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические основы учета капитальных затрат в сельскохозяйственных предприятиях, в том числе в агрокластерах, то есть проблемы, возникающие при использовании терминов "капитальные затраты" и "инвестиции" и пути их решения.*

Ключевые слова: *капитальные затраты, инвестиции, агрокластеры, НСБУ №21, международные стандарты.*

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish uchun yetarli valyuta tushumini ta'minlash, buning uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini, ularning eksport hajmini yanada oshirish, qishloq xo'jaligida zamonaviy bozor munosabatlarini keng joriy etish maqsadida agroklastarlarni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-fevraldagi PF-27-son, "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5823-son, "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 7-iyuldagi PQ-216-son qarorlarining qabul qilinishi qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalar, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etilishiga,

tarmoqni kompleks rivojlantirishda va istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda katta zamin yaratdi.

1-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy fondlar turlari bo'yicha tarkibi¹⁹
mlrd. so'mda

N ^o	Asosiy fondlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1	Turar-joy binolari	23200,8	29851,0	30184,2
2	Noturar-joy binolari	38172,7	50894,5	58225,1
3	Boshqa inshootlar	27039,0	30290,6	43393,4
4	Yerni yaxshilash	285,9	277,1	257,1
5	Mashina va uskunalari, jami	110493,8	113863,9	115040,0
6	Transport uskunolari	12415,2	14574,5	10718,7
7	Axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunolari	7347,0	5325,6	5199,7
8	Boshqa mashina va uskunalari	90731,6	93963,8	99164,6
9	Bir necha marta mahsulot beruvchi, xayvonlar resurslari	2843,0	3656,8	3847,8
10	Bir necha marta mahsulot beruvchi daraxtlar, qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlar resurslari	880,7	838,6	783,8
11	Noishlab chiqarish aktivlarga mulk huquqini berish bilan bog'liq xarajatlar	225,0	138,2	365,8
12	Komyuter dasturiy ta'minoti va ma'lumotlar bazalari	25,2	98,6	154,9
13	Ko'ngilochar, adabiy va badiiy asarlarning asl nusxalari	1,6	0,8	26,0
14	Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar	86,5	30,8	210,7
15	Foydali qazilmalar zahiralari razvedka qilish va baholash	26,7	96,4	203,6
16	Boshqa intellektual mulk mahsulotlari	229,0	292,3	1169,0
	Jami	210195,1	239552,6	266240,0

Ushbu 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2022-yilda asosiy kapitaldagi asosiy fondlarga 266240 mlrd. so'mlik investitsiya kiritilib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 56044,9 yoki 26,6 foizga, 2021-yilga nisbatan esa 26687,4 yoki 11,1 foizga oshgan. Asosiy kapitalga 2022-yilda kiritilgan investitsiyalarning 49,1 foizi kapital qo'yilmalar tarkibidagi qishloq xo'jaligida muhim ishlab chiqarish vositalari (0,1 foizi yerni yaxshilashga, 43,2 foizi mashina va uskunalari, 4,0 foizi transport uskunolari, 1,4 foizi bir necha marta mahsulot beruvchi, xayvonlar resurslari, 0,3 foiz bir necha marta mahsulot beruvchi daraxtlar, qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlar resurslari) tashkil etgan.

Kapital qo'yilmalar²⁰, kapital mablag'lar — ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga tegishli asosiy fondlarni yaratishga, ularni yangilashga va harakatdagi fondlarni ko'paytirishga, obyektlarni qurishga sarf qilinadigan, ishlab chiqarishga qo'yilgan mablag'. Kapital qo'yilmalar davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar,


¹⁹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>

²⁰ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kapital-qoyilmalar-uz/>

banklarning kreditlari, korxonalar, firma, kompaniyalarning foydasi va amortizatsiya fondlari, aholi jamg'armalari hisobidan amalga oshiriladi. Kapital qo'yilmalar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, ularni zamonaviylashtirish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Kapital qo'yilmalar dastlab pul shaklida bo'lib, pulga resurslar sotib olinadi va bu resurslar ishlab chiqarishning moddiy omiliga aylanadi, natijada iqtisodiy o'sish yuz beradi.

Kapital qo'yilmalar²¹ - kapitalni shakllantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarning ajralmas qismi. Ular asosiy vositalarni yaratishga va ko'paytirishga sarflangan xarajatlarni anglatadi.

Kapital qo'yilmalar mohiyatini chuqurroq anglash uchun professor K.Urazovning taklificha, korxonalarning kapital qo'yimlarini quyidagi belgilarga muvofiq tasniflash maqsadga muvofiqdir (1-rasm).²²



1-rasm. Kapital qo'yilmalar tasnifi

Mazkur iqtisodchi olim kapital qo'yimlarni aniq belgilariga muvofiq asosli tasniflagan. Lekin, keltirilgan rasmda asosiy podani shakllantirish, ko'p yillik daraxtlarni ekish va parvarishlash, nomoddiy aktivlarni yaratishga tegishli kapital qo'yimlarga ham muayyan belgilariga muvofiq tasnif berilganida, u kapital qo'yimlarning turlarini kengroq qamrab olgan bo'lar edi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "kapital qo'yimlar" va "investitsiyalar" ham terminologiya, ham buxgalteriya jihatlari ko'rib chiqilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir muallif buxgalteriya hisobining muayyan muammosini o'rganayotgan va kapital sarflarni hisobga olishdan tashqari boshqa masalalarni hal qilgan holda, u yoki bu jarayonning tarkibiy elementlarini o'z tadqiqotlarida ifodalaydi.

Iqtisodchi olim F.M.Frengerning fikricha, "Investitsiya - bu kelajakda ko'proq iste'mol qilish imkoniyatiga ega bo'lish uchun ertangi kunga qoldirilgan narsa. Uning

²¹ <https://fayllar.org/mavzu-kapital-jilmalar-auditi.html>

²² K.Urazov Инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби. Т.: "Молия" 2006. В. 168.

bir qismi hozirda ishlatilmasdan zahiraga qoldiriladigan iste'mol buyumlari bo'lib, boshqa qismi esa ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslardir.”²³

V.F.Paliyning ta'rificha, “Kapital sarflar yoki kapital qo'yilmalar - bu asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli foydalaniladigan aktivlarni sotib olish va qurish bilan bog'liq bo'lgan sarflardir.”²⁴

G'ozibekov D.G., Sobirov O.Sh., Mo'minov A.G.larning “Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti” nomli darsligida “Kapital qo'yilma” va “Investitsiya” atamalarining bir-biridan farqli jihatlarini quyidagicha ajratadi: “Investitsiyalar” atamasi “kapital qo'yilma”, “investitsiyalarning mulkiy shakli”, “kapital”, “kredit” va boshqa atamalarga ko'ra kengroq tushuncha hisoblanadi. Investitsiyalarning qamrovi kengroq bo'lib, ular nafaqat qimmatli qog'ozlarni moliyalashtirish, balki asosiy vositalar, aylanma mablag'larga sarflangan mablag'larni ham o'z ichiga oladi.”²⁵

O.Bobojonov, K.Jumaniyozovlarning ta'kidlashicha, “Kapital qo'yilmalar deb, subyekt tomonidan yangi asosiy vositalarni qurish, sotib olish, rekonstruksiya qilish, foydalanilmayotgan asosiy vositalar obyektlarini kengaytirish va texnikaviy jihozlash uchun mablag'larning sarflanishiga aytiladi.”²⁶

Sotivoldiyev A.S., Itkin Yu.M.larning fikricha, “Korxonona tomonidan yangi qurilishga, asosiy vositalarni sotib olishga, rekonstruksiyaga, harakatdagi asosiy vositalarni kengaytirish va quvvatini texnik jihatdan qayta qurollantirishga sarflangan pul mablag'lar kapital qo'yilmalar hisoblanadi.”²⁷

Bu ta'riflar kapital qo'yilmalar mohiyatini to'liq ifodalamaydi, chunki, kapital sarflar faqatgina asosiy vositalarga nisbatan emas, balki nomoddiy aktivlarga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-sonli milliy standartiga muvofiq, “Kapital qo'yilmalar - korxonaning asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga investitsiyalari, shuningdek mahsuldor va ishchi hayvonlarning (qiymatidan qat'i nazar, korxonaning aylanma mablag'lariga kiruvchi parrandalar, quyonlar, asalarilar, qo'riqlovchi itlar, tajriba uchun mo'ljallangan hayvonlardan tashqari) asosiy podasini tashkil qilish bo'yicha xarajatlar...”²⁸ hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, kapital sarflarga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflar uning mohiyatini to'liq yoritib bera olmaydi. Chunki, mazkur ta'riflarda kapital qo'yilmalarning ayrim zamonaviy turlarining yaratilishi o'z ifodasini topmagan, ya'ni dasturiy ta'minot, savdo belgilari, mualliflik huquqlari kabi nomoddiy aktivlar qurilmaydi, sotib olinmaydi, ta'mirlanmaydi, balki yaratiladi. Bularga subyektning xodimlari tomonidan yaratilgan turli ishlanmalar, sanoat namunalari ixtirolarni kiritish mumkin. Ayrim kapital ta'mir xarajatlari buxgalteriya hisobining konseptual asoslariga muvofiq kelmaydi. Chunki kapital ta'mir xarajatlari katta summani tashkil

²³ Frenger F. M. Accounting for analysis: Third edition Richard D. Irwin inc., Homewood, Illinois, 1996. pp. 69.

²⁴ Палий В.Ф., Палий В.В. Финансовый учет. Учебное пособие. (2-е изд., перераб. и доп.)-М.: ИДФБК-ИРЕСС, 2001. с 218.

²⁵ Ғозибеков Д.Ғ., Собиров О. Ш., Мўминов А. Г. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. — Т.: Фан ва технология, 2004. — 308

²⁶ Бобожонов О., Жуманиёзов К. Молиявий ҳисоб.-Т.: Молия, 2002. -117 б.

²⁷ Сотиволдиев А.С., Иткин Ю.М. Замонавий бухгалтерия ҳисоби. 2-том - Т.: Ўзбекистон БАМА нашр, 2002.-122 б.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasini va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnomasi» Toshkent sh., 2002 yil 9 sentyabr, 103-son.

etib, ular asosiy vositalari foydali muddatini oshiradi. Bu esa, kapital qo'yilmalarni barcha xususiyatlarini aks ettiradigan takomillashgan ta'rifni keltirishni talab etadi.

Yuqorida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keltirilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda, "Kapital qo'yilmalar - asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish, kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish hamda yaratish bilan bog'liq xarajatlar yig'indisidir" deb ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, qishloq xo'jalik korxonalarida, jumladan agroklastarlarda buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan hisobotlardagi atamalar, ko'rsatkichlarning nomlanishi, ularning qisqartmasini xalqaro standartlarga mos keladigan atamalarga moslashtirish lozim. Agarda ko'rsatkich qayta guruhlanish, baholash asosida qiymati xalqaro standartlarga muvofiq kelsada, uning nomlanishi muvofiq bo'lmasa, uni o'qish qiyinlashadi, turli chalkashliklarga olib keladi. Shu bois, kapital sarflar va investitsiya atamalar tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb, hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma". Toshkent sh., 2002-yil 9-sentyabr, 103-son.

2. Frenger F. M. Accounting for analysis: Third edition Richard D. Irwin inc., Homewood, Illinois, 1996. pp. 69.

3. Палий В.Ф., Палий В.В. Финансовый учет. Учебное пособие. (2-е изд., перераб. и доп.)-М.: ИДФБК-ПРЕСС, 2001. с 218.

4. Ғозибеков Д.Ғ., Собиров О. Ш., Мўминов А. Г. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. — Т.: Фан ва технология, 2004. В. 308

5. Бобожонов О., Жуманиёзов К. Молиявий ҳисоб.-Т.: Молия, 2002. б.117.

6. Сотиволдиев А.С., Иткин Ю.М. Замонавий бухгалтерия ҳисоби. 2-том - Т.: Ўзбекистон БАМА нашр, 2002. б.122.

7. K.Urazov Инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби. Т.: "Молия" 2006. б.168

8. Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTARLAR SOTISH JARAYONLARIDA SEGMENTAR HISOBOTLARNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(7), 790-795.

9. Tashmuratovich, E. U. (2023). ACCOUNTING AND AUDIT IMPROVEMENT OF READY SALE PRODUCTS IN AGROCLUSTER. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 649-657.

10. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. *SEA-Practical Application of Science*, (5), 649-654.

11. Eshmuradov, U. T. The methodology of the primary account sales of agricultural products. In *CONSTRUCȚII IDENTITARE-LITERATURA SI STUDII CULTURALE* (pp. 113-118). Editura Vasiliana'98.

12. Эшмурадов, У.Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1).
13. Eshmuradov, O. T., & Alikulov, A. I. (2022). EVALUATION AND ACCOUNTING OF MATERIAL WORKING CASH IN AGROCLUSTERS AS AN OBJECT OF ACCOUNTING. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 1), 102-109.
14. Alikulov, A. I., & Abdushukurov, K. B. (2023). IMPROVING THE ANALYSIS OF FINANCIAL RESULTS IN AGROCLUSTERS. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(9), 310-316.
15. Аликулов, А. И. (2010). Харажатлар ҳисоби ва таҳлилининг назарий ҳамда амалий масалалари. *Монография. "Фан ва технология", -Тошкент, 196.*
16. Аликулов, А., Ибрагимов, М., & Файзуллаев, З. (2019). Фермер хўжаликларида узумчилик плантацияларини барпо этиш харажатлари ҳисобини такомиллаштириш. *Экономика и инновационные технологии*, (3), 37-44.
17. Khasanov, B. A., Eshboev, U. T., Hasanova, R. B., Mukumov, Z. A., Alikulov, A. I., & Djumanova, A. B. (2019). Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 28(14), 42-48.
18. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. *JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT*, 6(5), 26-38.
19. Иштурдиев, Х. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В АГРОКЛАСТЕРЕ. *Научный Фокус*, 1(7), 700-708.
20. Muxammadkulovna, Y. D., Rabbimovna, R. U., & Bakhtiyorovna, N. G. (2023). Organization of Teaching Economics at the University. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 18, 30-32.
21. Казакова, З. С., & Назарова, М. Ш. (2023). СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Научный Фокус*, 1(7), 681-686.
22. Salamov, I., Jonibekov, F., Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunities. *INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE*, 1(3), 1-4.
23. Саламов, И., & Нурманов, Ш. Х. (2023). НЕРАВНОЦЕННОСТЬ В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ И ПУТИ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ. *Научный Фокус*, 1(7), 796-801.
24. Odilovich, O. A., Umirzokovich, T. F., & Turdibaevich, K. R. (2021). Increasing the Efficiency of Higher Education Personnel Training Management in Uzbekistan. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9251-9264.
25. Internet ma'lumotlari:
<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>
<https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kapital-qoyilmalar-uz/>

